

## **61010300-Sport faoliyati (futbol)**

### **bakalavriat ta’lim yo‘nalishi**

61010300-Sport faoliyati (futbol) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 3 yil.

61010300-Sport faoliyati (futbol) ta’lim yo‘nalishi – “Xizmat ko’rsatish sohasi”ga oid yo‘nalish bo‘lib, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarida mehnat faoliyatini tashkil etish, sport turlari bo‘yicha o‘quv mashg’ulotlarini va o’tkazish, mактабгача, умумий о’рта, о’рта максус, касб-хунар та’лим муассасаларда жисмоний тарбия дарсларини ташкил этиш ва о’tkazish, sport turlariga oid harakatlarga o’rgatish, jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid vositalar, tamoyillarni qo’llash, harakatlarga o’rgatish, yosh davrlariga nisbatan vosita va uslublarni tanlash, jismoniy yuklamalarni miqdor va sifat jihatidan boshqarish va individuallashtirish, jismoniy mashg’ulotlarni rejalashtirish, nazorat va tahlil qilib borish, sport faoliyatining asosiy tamonlarini boshqarish, sport sohasidagi ilmiytadqiqot ishlarini olib boorish bilan bog’liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

#### **Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- mактабгача та’лим, умумий о’рта та’лим, о’рта максус, касб-хунар та’лим муассасалари hamda ulardagi o‘quv jarayonlari;
- sport maktablari, sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktablari, sport turlari bo‘yicha ixtisoslashtirilgan bolalar va o’smirlar sport maktablari, bolalar va o’smirlar sport maktablaridagi sport mashg’ulotlari jarayoni;
- sport turlari bo‘yicha mashg’ulotlarni tashkil etish vosita va usullari;
- sport jamoalari, sport klublari, ishlab chiqarish korxonalari;
- sport musobaqalari.